

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SPORT SHARHIDA MA'NO VA UNING TURLARI


Sarimsokov X.A.

dotsent (PhD)

O'zMU, Xorijiy til va adabiyoti kafedrası.

Zamonaviy tilshunoslikda olimlar tomonidan leksik ma'no turlarini bir nechta turlari taqdim etilgan. Biz o'z tadqiqotimizda, I.R.Galperin va Q.Musayev tomonidan taqdim etilgan ma'no turlari asosida sport sharhlarini tahlilga tortdik.

Jadval Leksik ma'noning funksional tasnifi



A) *Mantiqiy ma'no* (logical meaning)- muayyan narsa, predmet yoki voqelikning nomi orqali ongda vujudga keluvchi ma'no. Mazkur ma'no turi, tabiiy ravishda, har bir shaxs uchun aniq, ravshan va ko'rinib turgan belgilari asosida umumiy tushunchani taqdim etadi. Bu lingvistik jarayon tilshunoslik sohasining ayrim manbalarida, *denotativ*, *referent* yoki *bevosita* ma'no deb ham ataladi. Masalan; *koptok* - *cho'ziluvchan, elastik materialdan ishlangan, qattiq jism zarbidan yoki qattiq sathga urilganda sakrovchi sharsimon predmet*; *hushtak* - *havoni bosim bilan puflab chiqarganda o'ziga xos tovush hosil qiluvchi asbob*. Sharh jarayonida: *O'yinni boshqarib borgan hakam o'z hushtagini chaldi va o'yin nihoyasiga yetdi* (Orif Tolipov).

Mantiqiy ma'no jarayonining o'ziga xos noqulay lingvistik xususiyati shundaki, bir shakl (so'z, leksik birlik) ikki xil tushunchani ifoda etadi. Shunga ko'ra, bu jarayon birlamchi va ikkilamchi (mantiqiy) ma'no turlari sifatida tavsiflanadi. Jumladan, 1) *to'p* – *koptok*; 2) *to'p* – *to'da* kabi ma'nolarda uchraydi. Sharh misolida: 1) *Oddiy vaziyada o'yinchi to'pni yo'qotdi*; 2) *Isroillik futbolchi, aynan, o'z o'yinchilari to'p turgan joyga uzatma amalga oshirdi* (B.Akmalov, *Isroil 20 - O'zbekiston 20*, +90).

Ingliz tilida ham bu jarayon juda murakkab hisoblanadi. 1) *bike* (n) – *velosiped. I used to ride my bike around the neighbourhood for hours*; 2) *bike* (v) - *velosipedda bormoq. The man on the front Magnus Sheffield, he is like... he is biking so good at the minute yesterday* (R.Hatch. Kuurne - Bruxelles - Kuurne 195.1km 27-2-2022).

Barcha ma'no turlariga lingvistik jihatdan e'tibor qaratsak, ular so'zlarning semantik tarkibini tashkil etadi. Semantik tizimni asosini leksik ma'no turlari tashkil qiladi va ular sathidan o'rin olgan. Biroq lug'at tarkibida uchramay og'zaki va yozma nutqda uchraydigan ma'no turi matniy ma'no turi deb ataladi. Ularning ma'nosi kontekstga qarab chiqariladi va semantik tarkibga kiritilmaydi. Bu jarayon har ikki tilning sport sharhlarida kuzatiladi. Masalan, 1) *"Badiiy qism uy-muzeyining ikkinchi qavatida joylashgan."*; 2) *Ikkinchi qavatda yaxshi o'ynashdi futbolchilarimiz, to'p qaytarildi* (B.Akmalov, *Isroil 20 - O'zbekiston 20*, 4 min.).

Namunada keltirilgan birinchi gapda "ikkinchi qavat" so'z birikmasi: *ko'p qavatli binoni yerdan yuqoriga hisoblaganda ikkinchisi qavati*, degan ma'noni anglatadi va bu lug'aviy ma'noga

ega birliklar hisoblanadi. Ikkinchi misolda esa “ikkinchi qavat” so‘z birikmasi: *to‘pni bosh bilan o‘ynamoq*, degan ma‘noni beradi va bu tushunchaning ma‘nosi faqat soha kontekstida yoki muayyan voqelikni sinxron ifodasi natijasi orqali namoyon bo‘ladi va tushuniladi. Shunday ekan so‘zlarning matniy ma‘nosi ifodalangan birikmalar, asosan, sharhlargagina xos deyish maqsadga muvofiq. Bu ikki ma‘no bir vaqtda nutqda paydo bo‘lishi kamyob lingvistik hodisa, biroq sharh jarayonida bu ikki lug‘aviy ma‘no va kontekstual ma‘no nutqimizda namoyon bo‘lishi sharhlovchining mahoratidan darak beradi. Masalan, *Son chopib kelib Andre Gomesni chopdi* (D.Fayziyev. Tottenham – Everton 1-1. 82 min.). Ushbu misol tarkibidagi *chop (chopmoq)* leksik birligini o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ma‘nolarini tahlil qilganimizda. *Chop (moq)* birligi uchun quyidagi ma‘nolar berilgan: 1) *oyoq bilan yugurmoq, ot minib yugurtirmoq*; 2) *tig‘li asboblardan zarb berib parchalamoq, yormoq, kesmoq* kabi ma‘nolari berilgan. Misol tarkibiga doir ikkinchi *chop* – leksik birligi esa berilmagan. Biroq jarayon yoki voqelikni kuzatsak, *oyog‘ini sindirdi* ma‘nosi anglashiladi.

Ingliz tili sharhlarida ham bu kuzatiladi. Agarda muhlislar yoki tinglovchilar sharhlarni vaziyat bilan sinxron ravishda kuzatmas ekan, mantiqiy ma‘noni tushuna olishmaydi. Masalan, *And Salah is up on his bike and Salah's bike is a quick one* (P. Drury. Liverpool 7-0 MU. 5.3.2023.) - tarj.: *Saloh o‘zining tezligida va uning tezligi juda yuqori*. Ushbu sharh egasi o‘yinchi qanchalik tezkor ekanligini *bike* leksik birligi orqali taqdim etmoqdi. Shunday ekan kontekstual ma‘no faqat matnlardagina emas balki vaziyatlarda ham namoyon bo‘ladi. Lug‘aviy ma‘no va kontekstual ma‘noga ega bir xil shakldagi birlikning bir gap tarkibida qo‘llash jarayon sharhlovchining mahorati bilan bog‘liq.

Emotiv (hissiy) ma‘no (emotive meaning) – sharhlovchilar orasida eng ko‘p tarqalgan lingvistik jarayon hisoblanadi. Ba‘zi olimlar so‘z mazmuni faqat leksik ma‘nolarning yig‘indisidan iborat emasligini ta‘kidlaydi. Tahlillarimiz asosida ular nazariy va amaliy jihatdan xaq desak xato bo‘lmaydi. Sharhlar tarkibida so‘zlarning qo‘shimcha ma‘noga ekanligini kuzatdik. Ular tilshunoslikda *emotiv, konnotativ yoki uslubiy ma‘nolar* deb ham ataladi. Emotiv ma‘no beruvchi so‘zlar lug‘at tarkibida uchrasada, ularni kontekst yoki vaziyat bilan taqqoslasa, bir xil ma‘no anglatmaydi. Chunki ular matnlarda avtor yoki muallifning, sharhlarda sharhlovchining his tuyg‘usini ifodalaydi. Sharhlar tarkibida ular gohida *bir so‘z, bir tovush* yoki *his – hayajonni ifodalovchi birlik* bo‘lishi mumkin. O‘zbek tili misolida, *Shoma, ber, ber, berdi, yoooooy o‘ziga bermaysanmi* (H.Hamidov, O‘zbekiston – Eron, 0-1); *Eeeh, omad kelmasa...* (O.Tolipov, Eron U 17 - O‘zbekiston U 17. 90+ daq.); Ingliz tilida: *Uh, it's super ball, Gakpo is on to it, it's Cody Gakpoooo* (P. Drury. Liverpool 7-0 MU. 5.3.2023.)! - **tarj.:** *uh, bu super to‘p (uzatma), Gakpo egalladi, Kodi Gakpooo!*

Tahlillarimiz natijasida o‘zbek sharhlovchilarining sharhlari orqali quyidagi jarayon kuzatildi. Agar o‘yindagi kulminatsion vaziyat biror bir o‘yinchi bilan bog‘liq bo‘lsa, bu jarayonda o‘sha o‘yinchining nomi emotiv ma‘no beruvchi birlikka aylanadi. Demak, sharh jarayonida emotiv ma‘no faqat turdosh otlar orqali vujudga kelmaydi, ular atoqli otlar orqali ham hosil bo‘ladi. Masalan, *Oston, Ostoon ketdi; Masharipov Shukurovga, Shukurov ber tez, Oston ulgurdimi, Oston, Ostoon, aldadi zarba yoooooy* (D.Fayziyev, O‘zbekiston – Eron, 0-1). Ushbu misolda Ostun O‘runov o‘yinda yaxshi vaziyatga chiqib borayapti va o‘yinning keskin vaziyati u bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun sharhlovchi sinxron tarzda uning nomini takrorlayapti. Bu holatda **nima sababdan sharhlovchi atoqli otdan foydalanyapti?**, degan tabiiy savol tug‘iladi. Agar sharhlovchi O.O‘runovning amalga oshirayotgan harakatlarni va uning har bir vaziyatini to‘liq ifodalasa, o‘yin bilan sharh o‘rtasida uyg‘unlik, sinxronlik yo‘qoladi hamda sharhlovchi

vaziyatdan ortda qolib ketadi, bu muxlislarni e'tiborini vaziyatdan ortda qoldiradi, zeriktiradi, qolaversa, sharhlovchining jurnalistik reytingini tushiradi. Aynan atoqli ot o'z ma'nosidan tashqari sharhlash jarayonidagi qo'shimcha ma'noni olishi emotiv holat bilan bog'liq, sharhlarning o'ziga xos lingvistik hodisasidir. Qolaversa, ushbu lingvistik o'ziga xoslik faqat sharhlardagina kuzatiladi. Bu kabi jarayon ingliz tilida ham mavjud. Jumladan, *Here is Rashford, Rashford has rifled* (P. Drury. Arsenal 3-2 MU. 22.01.2023. 17 min.)! – **tarj.:** *Bu Reshford, Reshford nishonga urdi!*

Emotiv ma'no stilistika sohasida juda muhimdir, nafaqat sharhlovchilar balki yozuvchi, shoirlar ham o'z asarlarida ushbu ma'no keltirib chiqaruvchi birliklarga ko'p murojaat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, emotiv ma'no stilistik vositalarni ko'proq hosil qiluvchi, yaratuvchi lisoniy hodisa.

Nominativ ma'no (*nominative meaning*). Sharhlash jarayonida ma'lum tushunchalarni ifodalash murakkab lisoniy voqelik bo'lib, ular ma'no bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, umumiy bir sinfdan ma'lum bir ob'yektni bildiradigan so'zlar mavjud va ular nominativ ma'no orqali farqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, nominativ ma'no grammatik turdosh otlar sinfidan bir aniq ot va birlik ko'rsatgichidagi ob'yektlarni ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Agarda biz istalgan bir predmetning “belgi”si va “xususiyati” o'rtasidagi farqni yaxshiroq tushunsak, ong yordamida aniqlik kiritsak, shunda nominativ ma'noni anglagan bo'lamiz. Masalan, o'zbek tilidagi **tosh** so'zini oladigan bo'lsak, bizning ko'z oldimizda uning dastlabki aniq bir xususiyatlari, belgilari paydo bo'ladi. Ingliz tilida ham huddi shunday **tosh** – **stone** haqida uning dastlabki xususiyatlari paydo bo'ladi. Biroq o'zbek tilidan farqi shundaki, ingliz tilida turdosh ot yasash uchun, aniq va noaniq **a/an** va **the** artikllari ishlatiladi va nominativ ma'no hosil bo'ladi. O'zbek tilida bu artikllar yo'q, shuning uchun umumiy bir qoyida bor *bir turdagi predmetlarning umumiy nomi – turdosh otlar*. Shunday bo'lsada, ikki tilda ham turdosh otlarning nominal ma'nosini mantiqiy ma'nodan ajratib turuvchi xususiyati derli bir xil, jumladan, ikki tilda ham farqlovchi lisoniy belgi bu bosh harf bilan yozish hisoblanadi. Masalan, ingliz.: **valley** - turdosh ot sifatida vodiy ma'nosida qo'llansa, **The Valley** – nominativ ma'noda London, Charlton shahri Charlton Athletic jamoasining 27,111 sig'imiga ega uy stadionidir. Ingliz tilida bu kabi misollarni ko'plab uchratish mumkin, jumladan, **den** (in, uya) - **The Den** (London, Bermondsey shaharchasi Millwall jamoasining 19,369 sig'imiga ega uy stadioni); **shay** (taqib) - **The Shay** (Xalifaks (Halifax) shahri FC Halifax Town jamoasining 10,561 sig'imiga ega uy stadioni); **hive** (asal ari ini) - **the Hive** (London, Kennons Park (Canons Park) shaharchasining Barnet jamoasining 5,233 sig'imiga ega uy stadioni) kabilardir.

Sharh jarayonida ikki tilning o'xshash tomonlaridan biri morfologik derivatsiya yordamida nominativ ma'no hosil qilishdir. Bu jarayonda ingliz tilida -s qo'shimchasi mahsuldor bo'lsa, o'zbek tilida **-lik+lar**; lar mahsuldor hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida: **The Reds** are starting counter -attack (P. Drury. Liverpool 7-0 MU. 5.3.2023.) - **tarj.:** *qizillar qarshi hujum boshlashyapti*. Ushbu sharhda *the reds* -qizillar liverpullik o'yinchilarning libosiga nisbatan qo'llanilmoqda va lingvistik jihatdan nominal ma'no mantiqiy ma'nodan so'ng vujudga kelmoqda. Chalkash tushunchalar paydo bo'lmasligi uchun I.R.Galperinning fikrlarini qayd etib joiz: “Ma'lum bir ob'yektni ko'rsatuvchi nominal ma'nolar ikkinchi vazifadan mahrum”. Shu bois *the reds* – qizillar nominativ ma'no bilan ifodalanib, qolgan jamoa o'yinchilaridan ajratish uchun qo'llanilmoqda.

Hozirgi zamonaviy sharhlarda uslubiyat va uning tarkibiy qismi bo'lmish leksik ma'no hamda uning turlarini o'rni juda ham muhim. Boisi sharhlovchi neytral hududda turgan holda

o'yinni sharhlab berishi undan lingvistik jihatdan chuqur bilimni talab qiladi, chunki sharhlovchi o'yinning harorati, kayfiyati va mantig'idan kelib chiqqan holda yondashishi talab etiladi. Sharh jarayonidagi rang baranglik sharhlovchi tomonidan taqdim etilgan mantiqiy va nominativ ma'nolarga bog'liq bo'ladi. Agarda o'zi sharhlayotgan o'yinning ma'lum vaziyatida gol bo'lib qolsa, emotiv ma'no orqali sharh boyitiladi. Biroq nozik tomoni shundaki, ushbu muhim pallada gol urgan jamoaning muxlislarini emas, balki golning o'ziga, golning atrofidagi vaziyatga emotsional birliklar orqali munosib baho berishi maqsadga muvofiq. Chunki har qanday sport turida sharhlovchini qarama qarshi tomon muxlislari tinglaydi va kuzatadi. Shunday ekan, bugungi kun sport jurnalistikasi, soha jurnalistlari, sharhlovchilaridan tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan stilistika ya'ni uslubshunoslikka doir bilimlarni o'rganish va amaliyot jarayonida qo'llash ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Galperin I.R., Stylistics. Higher school Publishing house. Moscow, 1971.- 61 p.
2. Рамазонова З., Таваллудига 120 йил тўлган адиб – Гафур Ғулом уй-музейига саёҳат.
<https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/13/gafur-gulom-museum>
3. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/bike_1